**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**





# JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR - DEKABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11149,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.

| 1,7% | 94,1% | 3,4% | 0,8% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr |
|---|---|---|
| B | 32,8 % | 35,5 % |
| C | 113,9 % | 110,9 % |
| D | 114,8 % | 114,0 % |
| E | 99,0 % | 89,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,9 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 14,0 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-dekabr**

**2022- yil** 195,0 mlrd. so‘m — **2022- yil** 35,5%

**2021- yil** 111,5 mlrd. so‘m — **2021- yil** 32,8 %

**2020- yil** 137,2 mlrd. so‘m — **2020- yil** 98,4 %

B

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,7 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 1,3 % | 1,7 % |

Yanvar-dekabr

## Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 28 769,7 | 25 735,3 | -3 034,4 |
| Sharof Rashidov tumani | 62 904,2 | 50 927,2 | -11 977,0 |
| Zomin tumani | 19 070,1 | 20 882,1 | 1 812,0 |
| Jizzax shahri | 66 418,3 | 73 668,4 | 7 250,1 |
| Zafarobod tumani | 17 475,7 | 14 575,4 | - 2 900,3 |

*Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 37,8 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 26,1 % ni va G‘allaorol tumani 13,2 % ni tashkil etdi.*

32,8 %

2021- yil

35,5 %

2022- yil

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-dekabr oyilarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10486,4 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-dekabr** — 93,6 %

**2022-yil yanvar-dekabr** — 94,1 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 25,2 % (19,8 %) ni, o‘rta-quyi texnologiyali – 20,6 % (23,4 %) va quyi texnologiyalisi - 48,1 % ( 50,4 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,4 % ( 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,2 % ( 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 33,0 % ( 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % ( 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,5 % ( 2021- yilning yanvar –dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,8 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*


















## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi, t.** | 49 577,0 | 45 081,6 | -4 495,4 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.** | 63 064,4 | 52 254,2 | -10 810,2 |
| **Paxta chigiti, t.** | 75 797,0 | 73 233,5 | - 2 563,5 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.** | 4 483,0 | 8 619,3 | 4 136,3 |
| **Paxta linti, t.** | 4 515,5 | 5 154,5 | 639,0 |
| **Trikotaj polotnolar, t.** | 2 375,0 | 1 877,0 | -498,0 |

*2022- yilning yanvar-dekabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 52,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 17,1 % kamaygan), 45,1 ming tonna paxta tolasi ( 17,8 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 73,2 ming tonna paxta chigiti 13,8 % ga ) kamaygani kuzatildi.*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**82,9 %**

**Paxta tolasi, t.**

**82,2 %**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 98,6 % ga tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 108,1 % o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 135,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2020- yil 73,8 %

2021- yil 98,6 %

2022- yil 108,1 %

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2020- yil 100,6 %

2021- yil 65,3 %

2022- yil 98,0 %

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 65,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,0 % ga o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1640,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1380,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

2020- yil 105,3 %

2021- yil 112,0 %

2022- yil 111,9 %

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 70,2 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakun-lariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 75,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 15,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 114,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 109,1 % tashkil etgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3288,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 120,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 110,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 386,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 265,7 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 17,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 347,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Elektr jihozlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 94,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 459,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 59,3 % ga oshgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 119,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 378,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 377,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,4 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,0 % ga o‘sishi  kuzatildi.*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,  mln. so‘m | 262 232,7 | 296 637,8 | 34 405,1 |
| Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi),ming gkal | 7,6 | 6,8 | - 0,8 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 85 555,8 | 80 659,4 | - 4 896,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 90,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m, | 73 479,4 | 63 862,3 | -9 617,1 |
| Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 22 422,3 | 27 035,7 | 4 613,4 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 13,9 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 4,6 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5251,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021-yil yanvar-dekabr | 2022-yil yanvar-dekabr |
|---|---|
| 22,3% | 22,3% |

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021-yil yanvar-dekabr | 2022-yil yanvar-dekabr |
|---|---|
| 77,7% | 77,7% |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 22,3 % (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 22,3 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 38,7 % ni va Paxtakor tumani 11,3 % ni, Sharof Rashidov tumani 7,2 % ni hamda Zomin tumani 12,1 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (146,5 %), Sharof Rashidov tumanida (155,2 %) hamda Arnasoy tumanida (118,0 %), qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 26,7 % shuningdek, G‘allaorol tumani 38,2 %, ni, hamda Paxtakor tumani 6,5 % ni tashkil etdi.*




*2992,8 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-dekabr*

*3981,3 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-dekabr*

*5251,2 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-dekabr*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** **116,7 %**

**2021- yil** **136,4 %**

**2022- yil** **115,6 %**

# Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 23,3 % shuningdek, G‘allaorol tumani 48,0 %, Sharof Rashidov tumani 5,2 % ni tashkil etdi.*

**2108,0** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-dekabr*

**3054,8** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-dekabr*

**4081,6** mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-dekabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 121,1 %

02 2021- yil 151,5 %

04 2022- yil 115,6 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 38,7 % ni, shuningdek, Zomin tumani 12,1 % ni, Paxtakor tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.*




*823,5 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-dekabr*

*926,4 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-dekabr*

*1169,6 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-dekabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 107,5 %

02 2021- yil 102,7 %

04 2022- yil 115,6 %

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 34,3 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 19,1 % ni, Zafarobod tumani esa 9,9 % ni tashkil etdi.*

### Jizzax viloyati

| Yil | Hajm |
|---|---|
| 2020- yil | 5823,8 mlrd. so'm |
| 2021- yil | 8704,1 mlrd. so'm |
| 2022- yil | 11149,5 mlrd. so'm |



| Yil | % |
|---|---|
| 2020- yil | 118,4 % |
| 2021- yil | 110,2 % |
| 2022- yil | 107,8 % |

| | FHI, % da | mlrd. so'm |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 107,8 | 11149,5 |
| Jizzax shahar | 106,5 | 3826,7 |
| Arnasoy | 87,8 | 213,0 |
| Baxmal | 103,6 | 101,6 |
| G'allaorol | 137,6 | 2124,5 |
| Sharof Rashidov | 106,4 | 534,8 |
| Do'stlik | 99,2 | 865,1 |
| Zomin | 103,3 | 657,5 |
| Zarbdor | 98,2 | 322,3 |
| Zafarobod | 105,7 | 1106,9 |
| Mirzacho'l | 101,7 | 157,0 |
| Paxtakor | 107,8 | 660,4 |
| Forish | 113,7 | 536,9 |
| Yangiobod | 98,1 | 42,8 |

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (20210,4 ming so‘m), Zafarobod (21237,3 ming so‘m) tumanida hamda G‘allaorol ( 11740,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ( 7639,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




## Jizzax viloyati

2020- yil — 4170,8 ming. so‘m

2021- yil — 6099,8 ming. so‘m

2022- yil — 7639,4 ming. so‘m



01 — 2020- yil — 115,9 %

02 — 2021- yil — 107,8 %

04 — 2022- yil — 105,4 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 446,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,9 % ni tashkil etdi.*




### Jizzax viloyati

**2020- yil** — 3571,7 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 4563,8 mlrd. so‘m

**2022- yil** — 5446,8 mlrd. so‘m



**2020- yil** — 64,2 %

**2021- yil** — 52,4 %

**2022- yil** — 48,9 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 598,0 ming so‘m bo‘lgani holda, Jizzax shahrida – 7 416,3 ming so‘mni, Paxtakor tumanida – 4 325,0 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida –11 098,6 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Jizzax viloyati

**2020- yil** — 2143,4 ming. so‘m

**2021- yil** — 2790,1 ming. so‘m

**2022- yil** — 3598,0 ming. so‘m



**2020- yil** — 114,3 %

**2021- yil** — 133,5 %

**2022- yil** — 113,0 %



# Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4080 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1216 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,8 % i ) Jizzax shahriga, 692 tasi (17,0 %) Sharof Rashidov tumaniga, 416 tasi ( 10,2 %) G‘allaorol tumaniga, 344 tasi ( 8,4 %) Zomin tumaniga va 237 tasi (5,8 %) Zarbdor tumaniga to‘gri kelmoqda.*




## Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 821 dona

**2021- yil** — 840 dona

**2022- yil** — 867 dona



## Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 3 473 dona

**2021- yil** — 3 654 dona

**2022- yil** — 4 080 dona

**2022-yil yanvar-dekabr**

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 66 ta loyiha bo‘yicha 4736,6 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 51,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.*

| 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|
| **Loyihalar soni**, *birlikda 65 ta* | **Loyihalar soni**, *birlikda 66 ta* |
| **Korxonalar soni,** birlikda **48 ta** | **Korxonalar soni,** birlikda **50 ta** |
| **Ishlab chiqarish hajmi 3645,6 mlrd.so‘m** | **Ishlab chiqarish hajmi 4736,6 mlrd. so‘m** |
| **Yatilgan yangi ish o‘rinlari 1387 ta** | **Yatilgan yangi ish o‘rinlari 1033 ta** |

*Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 1033 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 129,9 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 104,3 % ga o‘sganligi kuzatildi.*